



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

QORAQALPOG‘ISTON TIBBIYOT INSTITUTI

**“ATROF-MUHIT VA OROLBO‘YI AHOLISI SALOMATLIGI”
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI
MATERIALLARI TO‘PLAMI
24-OKTYABR 2025-YIL**



NUKUS 2025

Комплексларда цистицеркознинг кенг тарқалишига асосий сабаблардан бири кичикрок худудда кўп молларни тўплашдан иборат. Шунингдек, тениаринхоз билан оғриган кишиларнинг узоқ вақт давомида паразитнинг етук бўғинлари билан тухумларини ажратиши ва уларнинг ташқи муҳитда 12 ойгача, чорвачилик биноларида 18 ойгача, ахлат ва сийдикда 8 ойгача, сувда 6 ойгача, ўт-пичанда 4 ойгача сақланиши каби омиллар ҳам инвазиянинг ривожланишига олиб келади.

Ўзбекистон шароитида асосан қорамолларда кўпроқ учрайдиган цистицеркоз касаллиги сўйилаётган молларнинг 10% га яқинида мавжудлиги аниқланмоқда. Ветеринария мутахассислари бу касалга чалиниб сўйилган моллар гўштининг 1% ини истеъмолга яроқсиз деб топмоқдалар. Бундан ташқари, цистицеркоз касалига чалинган боқувдаги ёш мол ўртача 40 кг вазнда семизликдан қолади.

Касалликнинг олдини олишдаги умумий тадбирлар.

1. Чорвачилик ферма ва комплексларида ветеринария-санитария қоидаларига риоя этилишини назорат қилиш;

2. Маълумки, цистицеркоз билан касалланган ҳайвонларни ўз вақтида аниқлаш учун уларнинг тили пастки томонидан пайпаслаб кўрилади. Бунда тилнинг пастки қисми шиллиғи тагида буғдой дони ёки нўхатдек бўлган цистицерклар яхши кўриниб туради. Бу усул билан 65-70% зарарланган ҳайвонни аниқлаш мумкин. Шунингдек, цистицеркоз кўп учрайдиган хўжаликларда бу усулни кенг қўллаш;

3. Носоғлом деб ҳисобланган хўжаликларда нилверм (тетрамизол) дорисини қўллаш йўли билан ҳар бир молни гельминтсизлантириш тавсия этилади. Бунда 100 мл дистилланган сувга 10-12 г нилверм эритилиб, асептик эритма тайёрлаш тавсия этилади.

4. Молларни хўжалик шароитида сўйиш учун албатта махсус жиҳозланган жой бўлиши лозим. Бунда совутгич хоналар ҳам зарурлигини унутмаслик керак;

5. Сўйилган мол гўшти ва бошқа органларни албатта ветеринария кўригидан ўтказилиб, лозим топилганлари зарарсизлантирилади, ўта шикастланганлари эса қуйдириш ёки кўмиш йўли билан йўқотилади;

6. Ўлик жасадларни йиғиш ва утилизация қилишни тўғри ташкил этиш, уни яхшилаб жиҳозлаш лозим.

ICHIMLIK SUVNING SIFATINI VA AXOLINING SALOMATLIK HOLATI (TAXTAKO‘PIR TUMANI MISOLIDA)

Sherqo‘ziyeva G.F., Salomova F.I.,
Sharipova S.A., Ikramova N.A., Latipova M.Z.

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 19-sentyabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutqidan “Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash bilan bog‘liq muammolar to‘g‘risida so‘z yuritish ekanmiz, mintaqaning umumiy suv zaxiralaridan oqilona foydalanish kabi muhim masalani chetlab o‘tolmaymiz. Biz BMT tomonidan Orol fojiasidan jabr ko‘rgan aholiga amaliy yordam ko‘rsatish bo‘yicha shu yil qabul qilingan maxsus dastur to‘liq amalga oshirilishi tarafdorimiz” deb ko‘rsatib o‘tganlar. Global darajada, eng kamida 1,8 milliard kishi fekal moddalar bilan ifloslangan ichimlik suv manbalaridan foydalanmoqda. Ifloslangan suv diareya, vabo, dizenteriya, ich terlama va poliomyelit kabi kasalliklar qo‘zg‘atuvchilarini tashuvchi omil bo‘lishi mumkin. Hisob-kitoblarga ko‘ra, ifloslangan ichimlik suvi har yili 500 000 dan ortiq o‘lim holatlariga sababchidir. 2025-yilga borib, dunyoning yarim aholisi suv tanqisligi mavjud bo‘lgan

joylarda yashaydi. Yuqoridagilardan kelib chiqib biz aholi suv ta’minotini ekologo-gigiyenik baholash natijalari asosida aholining salomatligini o’rgandik. Bunda markazlashgan suv ta’minoti tizimi suv tizimi suvi sifatini baholash (organoleptik, kimyoviy va mikrobiologik ifloslanish ko’rsatkichlari - miqdoriy va sifat ko’rsatkichlari). 2017-2019-yillar mobaynida aholi kasallanish statistik ko’rsatkichlar tahlili.

Tadqiqotning predmeti sifatida Taxtako’pir tuman axolisini suv ta’minoti tizimi olingan bo’lsa, obyekt sifatida esa shu tumandagi aholi belgilab olindi. Taxtako’pir tumani 1928-yilda tashkil etilgan. Maydoni 21,1 ming km². Aholisi 42,6 ming kishi (2004). Tumanda 1 shaharcha (Taxtako’pir), 8 ovul fuqarolar yig’ini (Beltov, Janadaryo, Mulik, Otako’l, Taxtako’pir, Qoraoy, Qorateran, Qo’ng’irotko’l) bor. Aholisining asosiy qismini qoraqalpoq va qozoqlar tashkil etadi, shuningdek, o’zbek, qirg’iz, tatar, rus va boshqa millat vakillari ham bor. 2017-yilda suv ta’minoti manbasidan suv sifat holati umumiy namunalar soni 107 ta bo’lib, ulardan 90 tasi ya’ni 84,1% gigiyenik me’yorlarga mos kelmagan, kommunal xo’jalik vodoprovodlardan 162 ta namunadan 51 tasi, idoraviy vodoprovodlardan 371 ta 2 tasi gigiyenik talablarga javob bermagan. 2018-yilda suv ta’minoti manbasidan suv sifat holati umumiy namunalar soni 94 ta bo’lib, ulardan 75 tasi ya’ni 79,7% gigiyenik me’yorlarga mos kelmagan, kommunal xo’jalik vodoprovodlardan 157 ta namunadan 32 tasi (20,3%), idoraviy vodoprovodlardan 458 ta bo’lib, ulardan 71 (15,5%) quduq suvidan esa 180 tadan 179 tasi (99,4%) gigiyenik talablarga javob bermagan.

Aholining kasallanish holatini retrospektiv tahlil qilganimizda quyidagi natijalarni oldik: o’tkir ichak kasalliklari: 2017-yil 24 ta (respublika bo’yicha — 3788 ta) holat, 2018-yil — 43ta (respublika bo’yicha — 2660 ta), 2019-yil — 14 ta (respublika bo’yicha 2598 ta), 2020-yil esa — 18 ta (respublika bo’yicha — 1657 ta) xolat aniqlandi. Olingan natijalardan shuni xulosa qilishimiz mumkin 2018-2019-yillarda Taxtako’pir tumanida boshqa kuzatuv yillariga nisbatan kasallik ko’p qayd etilgan. Virusli gepati A ning tarqalishini tahlil natijalari esa quyidagicha: 2017-yil — 19 ta (respublika bo’yicha — 1320 ta) holat, 2018-yil — 5 ta (respublika bo’yicha — 1462 ta), 2019-yil — 1 ta (respublika bo’yicha — 1051 ta), 2020-yil esa 1 ta holat respublika bo’yicha 287 ta holat aniqlandi.

Ichimlik suv ta’minoti tizimidagi bakteriologik ko’rsatkichlar 2017-yilda amaldagi sanitar gigiyenik ko’rsatkichlardan 2,8% yuqori natijalarni ko’rsatdi. Aholi o’rtasida suv bilan bog’liq bo’lgan kasallanish holati asosan ichak infeksiyalari, gepatit A kasalliklari bilan kuchsiz korrelyatsion aloqaga egadir. Bunga asosiy sabab tumandagi vodoprovod inshooati tizimlarini profilaktik ta’minlash ishlarini o’z vaqtida olib borilmasligi, aholi o’rtasida shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya etmaslik, tumandagi vodoprovod tizimining boshi berk tarmoqlarini mavjudligidir. Yuqoridagilardan kelib chiqib ichimlik suvini sifatini doimiy monitoringini olib borish va aholi o’rtasida sanitariya oqartuv ishlarini o’tkazish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

УДК: 614-053

О ЗАВИСИМОСТИ ИНЦИДЕНТНОСТИ ДЕТЕЙ ДО 14 ЛЕТ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН ОТ ВРЕДНЫХ ЭКОЛОГО-ГИГИЕНИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ

Мадреимов А., Атаханова Д.О., Умарова Д.А.

Медицинский институт Каракалпастана,
Управление санитарно-эпидемиологического
благополучия и здоровья населения
Республики Каракалпастан

Аннотация. Анализ основных эколого-гигиенических факторов окружающей среды,